

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNING DAVLAT BOSHARUVIDAGI O'RNI VA ULARNI ISHLAB CHIQISH TARTIBI.

Karabayev Ozodbek Pardaboy o'g'li

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti "Davlat boshqaruvi huquqi" magistranti.

ozodbekkarabayev214@gmail.com +998931871873

O'ZBEK TILIDA

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisdan normativ-huquqiy hujjatlarning davlat boshqaruvida tutgan o'rni hamda ularni ishlab chiqish tartibini o'rganishga bag'ishlangan. Tezisdan normativ-huquqiy hujjatlarning nazariy-huquqiy asoslari, tushunchasi, turlari va tasnifi chuqur tahlil qilingan. Normativ-huquqiy hujjatlarning davlat boshqaruv tizimidagi ahamiyati, ularning ierarxiyasi va huquqiy kuchi tadqiq etilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish tartibining huquqiy mexanizmlari atroflicha ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: normativ-huquqiy hujjat, davlat boshqaruvi, qonunchilik, huquqiy tartibga solish, normativ-huquqiy baza, huquqiy ekspertiza, qonun ijodkorligi.

РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Данная тезис посвящена изучению роли нормативно-правовых документов в государственном управлении и порядка их разработки. В работе проведен глубокий анализ теоретико-правовых основ нормативно-



правовых документов, их понятия, видов и классификации. Исследовано значение нормативно-правовых документов в системе государственного управления, их иерархия и юридическая сила. В исследовании подробно рассмотрены правовые механизмы разработки, принятия и реализации нормативно-правовых документов в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: нормативно-правовой документ, государственное управление, законодательство, правовое регулирование, нормативно-правовая база, правовая экспертиза, законотворчество.

IN ENGLISH

Annotation

This thesis is devoted to studying the role of normative-legal documents in public administration and the procedure for their development. The paper provides an in-depth analysis of the theoretical and legal foundations of normative-legal documents, their concept, types and classification. The significance of normative-legal documents in the public administration system, their hierarchy and legal force are examined. The study thoroughly examines the legal mechanisms for developing, adopting and implementing normative-legal documents in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: normative-legal document, public administration, legislation, legal regulation, normative-legal framework, legal expertise, lawmaking.

KIRISH

Davlat boshqaruvi tizimi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotining samarali tashkil etilishi uchun zaruriy huquqiy asoslarni yaratadi. Bu jarayonni amalga oshirishda normativ-huquqiy hujjatlar muhim rol o'ynaydi. Normativ-huquqiy hujjatlar – bu davlat organlari tomonidan ishlab chiqilgan, qonuniy kuchga ega bo'lgan va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalar to'plamidir. Ularning asosiy vazifasi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolar va tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni aniq va tartibli qilishdir.





Normativ-huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilish jarayoni davlat boshqaruvinining samarali faoliyat yuritishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ularning tuzilishi va qabul qilinishi jarayonida asosiy maqsad – mamlakatda ijtimoiy tartibni saqlash, huquqiy tizimning samarali ishlashini ta'minlash va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdir. Shu bilan birga, normativ huquqiy hujjatlar faqatgina qonuniy normalarni belgilab qolmay, balki davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining 20.04.2021 yildagi O'RQ-682-son qonuni qabul qilingan. Ushbu qonun normativ huquqiy hujjatlarning huquqiy tabiati, ularning yuridik kuchining huquqiy asosi bo'lib hizmat qiladi. Qonunning 3-moddasida Normativ-huquqiy hujjat tushunchasiga ta'rif berilgan: Normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

Normativ-huquqiy hujjatlarning asosiy belgilari:

Birinchi, normativlik - hujjat umumiy xarakterga ega bo'lgan huquqiy normalarni o'z ichiga oladi. Bu normalar aniq bir shaxsga emas, balki noaniq doiradagi subyektlar (fuqarolar, tashkilotlar) uchun mo'ljallangan. **Ikkinchi**, rasmiy xarakter - hujjat vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan shakl va tartibda qabul qilinadi. Har bir normativ hujjat o'ziga xos rekvizitlarga ega: nomi, raqami, qabul qilingan sanasi, imzo va muhri. **Uchinchi**, majburiylik - normativ hujjatda belgilangan qoidalarga rioya qilish barcha subyektlar uchun majburiydir. Ularning buzilishi huquqiy javobgarlikka sabab bo'ladi. **To'rtinchi**, takroriy qo'llanish - normativ hujjat bir martalik emas, balki uning amal qilish muddati davomida takroriy qo'llaniladi. **Beshinchi**, huquqiy kuch - har bir normativ hujjat ma'lum huquqiy kuchga ega bo'lib, huquq tizimida muayyan o'rin egallaydi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning mohiyati shundan iboratki, ular davlat va jamiyat hayotini tartibga solishning asosiy vositasidir. Ular orqali davlat o'z

funksiyalarini amalga oshiradi, fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlaydi, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Bunda har bir hujjat o'ziga xos yuridik kuchga ega bo'ladi, ierarhik tizimda shakllanadi. O'zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlar tizimi, turli mezonlar asosida tasniflanadi.

1. Konstitutsiya - davlatning asosiy qonuni bo'lib, eng yuqori yuridik kuchga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30-aprel 2023-yilda qabul qilingan va davlatning siyosiy tuzilishi, fuqarolarning huquq erkinliklari va burchlarini belgilaydi. Konstitutsiyaning 16-moddasida belgilab qo'yilganki hech bir normative huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo'lishi mumkin.

2. Qonunlar - Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadigan va Konstitutsiyadan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi normativ hujjatlardir. Qonunlar uch turga bo'linadi:

-Konstitutsiyaviy qonunlar – oliy yuridik hujjat, qonunlarning negizi bo'lib xizmat qiladi.

-Kodekslar - muayyan huquq sohasini tartibga soluvchi qonunlar tizimidir.

-Oddiy qonunlar - aniq masalalarni tartibga soluvchi qonunlar

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari - qonunlarga zid bo'lmagan holda ijro etuvchi hokimiyat sohalarini tartibga soladi. Farmonlar asosan tashkiliy-huquqiy masalalarni, qarorlar esa aniq vazifalar va tadbirlarni belgilaydi.

4. Vazirlar Mahkamasining qarorlari - hukumat faoliyatini va ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishini tartibga soladi.

5. Vazirliklar va idoralarning buyruqlari - o'z vakolatlari doirasida muayyan sohani tartibga soladi.

6. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari - hududiy darajada muayyan masalalarni tartibga soladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning o'zaro nisbati mavjud. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ular ba'zida bir biriga zid kelib qolishi mumkin. Shunday holatlarda ularning qaysi biri amal qilishi to'g'risida Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi qonunning 18-moddasida javob berib ketilingan:

Turli normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo'yicha o'zaro nisbati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilgan organlarning vakolatlariga va maqomiga, ushbu hujjatlarning turlariga, shuningdek normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan sanaga muvofiq belgilanadi.

Normativ-huquqiy hujjat o'ziga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi kerak.

Normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovutlar bo'lgan taqdirda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat qo'llaniladi.

Teng yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovutlar bo'lgan taqdirda, keyinroq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat qoidalari amal qiladi,...

Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u qat'iy huquqiy tartibga solingan. Bu jarayon davlat boshqaruvining samaradorligini ta'minlash, fuqarolar va tashkilotlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun maxsus protseduralarni talab qiladi. Normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish jarayoni tashabbusning paydo bo'lishidan boshlanadi. Tashabbuskorlar turli subyektlar bo'lishi mumkin: davlat organlari, parlament a'zolari, Prezident, fuqarolar guruhlar yoki jamoat tashkilotlari. Tashabbusning asoslanganligini baholash uchun muayyan tahlillar o'tkaziladi. Bu bosqichda mavjud normativ bazaning holati, tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlarning

xususiyatlari, xorijiy tajriba va amaliy ehtiyojlar o'rganiladi. Tashabbuskor o'z taklifining zarurligini asoslab beruvchi tahliliy materiallarni tayyorlaydi.

Tashabbusning qonuniyligini tan olingach, loyihani ishlab chiqish bosqichi boshlanadi. Bu bosqich eng mas'uliyatli va murakkab jarayonlardan biridir. Loyihani tayyorlashda ishtirok etuvchi mutaxassislar guruhiga yuristlar, tegishli soha mutaxassislari, iqtisodchilar va boshqa kerakli ekspertlar kiradi. Loyihani ishlab chiqish jarayonida bir necha muhim talablar bajarilishi lozim. Loyihaning mazmuni Konstitutsiyaga va amaldagi qonunlarga zid bo'lmasligi kerak. Har bir norma boshqa normativ hujjatlar bilan uzviy bog'liqlikda bo'lishi, tizimli yondashuvni ta'minlashi zarur. Loyihada foydalaniladigan tushunchalar aniq va bir ma'noli bo'lishi, noaniqliklardan qochilishi kerak. Matndagi huquqiy terminlar huquqiy ta'lim va amaliyotda qabul qilingan ma'nolarda ishlatiladi.

Loyihaning strukturasi ham muhim ahamiyatga ega. Qonun loyihasi odatda umumiy qoidalar, asosiy qism va yakuniy qoidalardan iborat bo'ladi. Umumiy qoidalarda qonunning maqsadi, asosiy tushunchalar, qo'llanish doirasi ko'rsatiladi. Asosiy qismda munosabatlarni tartibga soluvchi normalar joylashadi. Yakuniy qoidalarda qonunning kuchga kirish tartibi, bekor qilinadigan yoki o'zgartiriladigan normativ hujjatlar ko'rsatiladi.

Loyiha tayyorlangach, u muvofiqlashtirish bosqichiga o'tkaziladi. Muvofiqlashtirish jarayoni loyihaning turli davlat organlari, jamoatchilik va ekspertlar tomonidan muhokama qilinishini ta'minlaydi. Qonun loyihalari majburiy ravishda Vazirlik va idoralar, Qonunchilik palatasi qoshidagi maxsus qo'mitalar, Adliya vazirligi tomonidan ko'rib chiqiladi. Iqtisodiy ta'sir ko'rsatuvchi loyihalar Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank bilan muvofiqlashtiriladi. Fuqarolar huquqlariga tegishli loyihalar Inson huquqlari bo'yicha Ombudsman bilan muhokama qilinadi. Muvofiqlashtirish jarayonida har bir organ o'z vakolatlari doirasida loyihaga fikr bildiradi. Tuzatish va qo'shimchalar kiritish taklif etilishi mumkin. Tashabbuskor organ barcha fikrlarni yig'ib, ularni o'rganadi va

asoslangan takliflarni loyihaga kiritadi. Agar kelishmovchiliklar yuzaga kelsa, maxsus komissiyalar tuziladi yoki yuqori turuvchi organ tomonidan hal qilinadi.

Huquqiy ekspertiza normativ-huquqiy loyihalarni tahlil qilishning alohida turi hisoblanadi. Ekspertiza jarayonida loyihaning qonuniyligini, boshqa normativ hujjatlar bilan muvofiqligini, huquqiy texnika talablariga javob berishini tekshiriladi. Adliya vazirligi qonun loyihalariga majburiy huquqiy ekspertiza o'tkazadi. Ekspertiza xulosasida loyihaning ijobiy tomonlari va kamchiliklari ko'rsatiladi, zarur tuzatishlar tavsiya etiladi. Zamonaviy sharoitda jamoatchilik ekspertizasi ham muhim o'rin tutadi. Ko'plab loyihalar, ayniqsa ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lganlar, ochiq muhokamaga qo'yiladi. Rasmiy veb-saytlar, OAV, ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolar va tashkilotlar loyihaga o'z fikr-mulohazalarini bildirishi mumkin. Jamoatchilik fikrini hisobga olish demokratik qonunchilik jarayonining muhim tamoyilidir. Barcha zaruriy muvofiqlashtirish va ekspertizalardan o'tgach, loyiha rasmiy ko'rib chiqishga taqdim etiladi. Qonun loyihalari uchun bu Oliy Majlis Qonunchilik palatasi yoki Senat bo'ladi. Prezident farmonlari uchun Prezident Administratsiyasi maxsus bo'limlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari uchun Hukumat Kotibiyati tegishli tayyorgarlik ishlari olib boradi.

Qonun loyihalarini ko'rib chiqish parlament qo'mitalarida boshlanadi. Qo'mitalar loyihani batafsil o'rganadi, zarur bo'lsa qo'shimcha ekspertlar tortiladi, tinglovlar o'tkaziladi. Qo'mita xulosasi bilan loyiha palataning plenar majlisiga taqdim etiladi. Palatada loyiha uch o'qishda muhokama qilinadi. Birinchi o'qishda loyihaning umumiy kontseptsiyasi muhokama qilinadi. Ikkinchi o'qishda moddalar bo'yicha batafsil ko'rib chiqiladi va tuzatishlar kiritiladi. Uchinchi o'qishda loyihaning yakuniy matni ovozga qo'yiladi.

Qonun ikkala palata tomonidan qabul qilingach, u Prezidentga imzolash uchun yuboriladi. Prezident qonunni imzolashi yoki qaytarishi mumkin. Agar Prezident qonunni imzolasa, u rasmiy e'lon qilinadi va kuchga kiradi. Agar

Prezident qonunni qaytarsa, parlament uni qayta ko'rib chiqadi va o'z qarorida qolsa, ovozlarning uchdan ikki qismi bilan yana qabul qilishi mumkin. Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari soddaroq tartibda qabul qilinadi, lekin ular ham zaruriy tayyorgarlik, muvofiqlashtirish va ekspertizadan o'tadi. Bu hujjatlar imzolanganidan so'ng rasmiy nashrda e'lon qilinadi va belgilangan muddatdan keyin kuchga kiradi.

Normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishi ham maxsus tartibga ega. Qonunlar rasmiy e'lon qilingandan keyin ma'lum muddat o'tgach kuchga kiradi. Bu muddat odatda o'n kundan bir oygacha bo'ladi. Muayyan hollarda qonunda kuchga kirish muddati alohida ko'rsatilishi mumkin. Ayrim qonunlar bosqichma-bosqich kuchga kirishi ham mumkin. Normativ hujjatlarni rasmiy e'lon qilish ularning qonuniy kuchga ega bo'lishining majburiy shartidir. E'lon qilinmagan hujjat qo'llanilmaydi. Qonunlar "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi"da, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari maxsus rasmiy nashrlarda e'lon qilinadi. Bugungi kunda barcha normativ hujjatlar lex.uz elektron bazasida ham joylashtiriladi, bu ulardan foydalanishni osonlashtiradi.

Biroq, normativ-huquqiy hujjatlar amaliyotini tahlil qilish bir qator muammolarni ko'rsatadi. Eng muhim muammolardan biri normativ bazaning haddan tashqari ko'pligi va murakkabligidir. Bugungi kunda O'zbekistonda ikki mingdan ortiq qonun va o'n besh mingdan ziyod qonunosti me'yoriy hujjatlar amal qilmoqda. Bunday katta hajmdagi normativ baza nafaqat fuqarolar, balki huquqni qo'llash organlari xodimlari uchun ham qiyinchilik tug'dirmoqda. Konkret vaziyatda qaysi norma qo'llanilishi kerakligini aniqlash, turli darajadagi hujjatlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish murakkab vazifaga aylanadi.

Normativ hujjatlarning tez-tez o'zgarishi ham jiddiy muammo hisoblanadi. Ayrim qonunlarga yillar davomida o'nlab marta o'zgartirishlar kiritiladi. Bu normativ bazaning barqarorligiga putur etkazadi va huquqiy noaniqlik yaratadi. Tadbirkorlar va investorlar uzoq muddatli rejalar tuzayotganda, qonunlarning



barqaror bo'lishiga ishonch hosil qila olmaydilar. Har safar o'zgartirish kiritilganda, biznes jarayonlarini qayta qurishga, xodimlarni qayta o'rgatishga, yangi talablarga moslashishga to'g'ri keladi.

Xulosa qilib aytganda normativ-huquqiy hujjatlar davlat funksiyasini amalga oshirishida asosiy richag vazifasini o'tab beradi. Uni takomillashtirish, zamon ruhiga moslab borish va to'g'ri yo'naltirish har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan vujudga kelayotgan noqaniqliklar ham bartaraf etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" 2023.
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun. 2021-yil 20-aprel, ORQ-682-son.
3. S.Murtayev, B.Musayev, D.Artikov "Ma'muriy huquq" Darslik – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022.
4. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018.
5. X.A. Muxitdinov, A.A.Sobirov "Boshqaruv nazariyasi" Darzslik-Toshkent "Cho'lpon nomidagi nashriyot –matbaa ijod uyi", 2012.